

# **ATAMALARNING TARJIMADAGI O'RNI, ATAMASHUNOSLIK VA KELIB CHIQISH TARIXI.**

**Yulchiyeva Maftuna XXX**

Jizzax viloyati yuridik texnikumi

"Xususiy huquqiy fanlar" kafedrası

## **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tarjimashunoslikdagi paydo bo'ladigan umumiy muammolar, tarjimashunoslikning hozirgi davrdagi talabi va uning jamiyatdagi o'rni, tilshunoslikda soʻz, atama uning semantik-struktur xususiyatlarini chuqur tadqiq etish, terminologlar ism universalligi tufayli har qanday hodisa yoki jarayonni ifodalashi haqida yoritilgan.

Kalit soʻzlar: termin, atama, fransuz tili, rapira, tarjima, fan, texnologiya, atamashunoslik.

## **АННОТАЦИЯ**

В данной статье общие проблемы, возникающие в переводоведении, современная востребованность переводоведения и его роль в обществе, углубленное изучение семантико-структурных свойств слов и терминов в языкознании, терминологи описывают любое событие или процесс, обусловленный к универсальности имени.

Ключевые слова: термин, термин, французский язык, рапира, перевод, наука, технология, терминология.

## **ANNOTATION**

In this article, the general problems that appear in translation studies, the current demand of translation studies and its role in society, the in-depth study of the semantic-structural properties of words and terms in linguistics, terminologists describe any event or process due to the universality of the name.

Key words: term, term, French language, rapier, translation, science, technology, terminology.

Bugungi kunda zamonaviy globallashuv va madaniyatlararo aloqalarning jadal rivojlanishi, xalqaro aloqalarni kengayib borishi, davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning rivojlanishi, Yevropa mamlakatlari va butun dunyoning integrallashuv jarayonining kuchayib borishi, fan va texnologiyalarning rivojlanishi, ilmiy va texnikaviy ma'lumotlarning doimiy ravishda uzviy almashib borishining samarali omillari sifatida hozirgi kunda chet tillarining ahamiyati katta e'tiborga sazovordir. Shuningdek, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy taraqqiyot bosqichida chet tili dunyoning turli xalqlar vakillari o'rtasida og'zaki va yozma aloqa vositasi sifatida keng qo'llanilib kelmoqda.

Bilim va texnologiyalar jadal rivojlanishi oqibatida zamonaviy davr bugungi jamiyatda barcha jihatlarni qamrab olgan holda va zamonaviy iqtisodiyot o'zgarib boraytgan sharoit davrida, shuningdek turli xil sohalariga tegishli ilmiy va texnik matnlarni tarjima qilishda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan tarjimonlar – mutaxassislar bugungi kunda alohida ehtiyojga munosibdir. Shu sababli keng bilimli tarjimon mutaxassislarga ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda. Tarjimada atamalarga oid muammolar.

Ilmiy tafakkurning yetakchi shakllaridan biridir va u ma'noni anglash va idrok etish tushunchalari bilan bog'liqdir. Ilmiy matndagi deyarli har bir atama leksik birlik bo'lib turib, u maxsus leksik birliklar ma'nolaridan birini ifodalaydi. Bu leksik birliklar esa atamalar kategoriyasiga mansubdir.

Umuman olganda atama bu fan va texnologiyalar kesimida ma'lum bir sohaga xos bo'lgan so'z yoki iboradir. Atama tilshunoslikda aniq semantik chegaralarga ega. Shundan kelib chiqadiki, atamalar bu ma'lum bir fanga tegishli og'zaki iboralar bilan mustahkamlangan tushunchalar tizimidir. Agar umumiy tilda (atamadan tashqari) so'z ko'p manoga ega bo'lsada, u atamalar kategoriyasiga tushib qolsa,

ushbu soʻz aniq maʼnoga ega boʻlib qolib, tarjimada esa uning atamadagi maʼnosi qoʻllaniladi.

Shu sababli, tarjimonning ilmiy matnni tarjima qilishda yoʻl qoʻyadigan asosiy xatolaridan biri bu ilmiy lugʻatlardan foydalanish qobiliyati yetarlicha koʻnikmalar mavjud emasligi yoki atamaga xos boʻlgan mavzuni aniq maʼlumotga ega emasligidir - bu xolat xatto oʻz ona tilida ham kuzatilishi mumkin. Qoʻllanilish va miqdoriy jihatdan, ilmiy uslub matnlarida atamalar maxsus lugʻatlari boshqa turdagi lugʻatlardan kengroq foydalaniladi. Ular quyidagilar: nomenklatura nomlari, professionallik lugʻat va atamalar, kasbga oid jargon va boshqalar. Ushbu leksika ilmiy matndagi barcha sohalarida keng qoʻllaniladi (yani matn klassifikasiyasida, matn tuzulishida va uning funksiyasida, matn komponentlarida va faktorlari ham inobatga olinadi). Oʻrtacha hisobda, atamalarga oid yoki terminologik lugʻat ilmiy matnlarning umumiy lugʻat boyligidan 20 foizini tashkil qiladi.

Atamashunoslikning kelib chiqishi Avstriyalik olim Oyggen Vyuster va atamashunos Dmitriy Semyonovich Lotte 1930 yillar dastlabki ishlarini chop etishgan. Hozirgi kunga kelib atamashunoslik nazariy masalalarini ishlab chiqish ustida bir qator milliy maktablar shugʻullanib kelmoqda – Avstriya Olmon, Rossiya, Chex maktablari maxsus leksikani koʻrib chiqish aspekti va yondashuvi bilan farq qiladi: tadqiqotlarning ahamiyati va koʻlami jihatida yetakchi sifatida Rossiya maktabini aytish hato boʻlmaydi. Ular qilgan ishlar natijasi 2300 dan ziyod himoya qilingan dissertatsiyalar tahminan 3500 atamalarni oʻz ichiga olgan. Atamashunoslikda aks etadi. Dastlabki ishlar Reformatskiy A.A. M., 1959 Kutina L.L.M., 1966 Levkovskaya K.A., M., 1962 Chumakova O.P. M., 1965 Klimovskiy Ya.A. 1969. yaqin 10 yil ichida ham 40 dan ziyod ishlar mavjud boʻlib aynan texnik atamalar ustida tadqiqot ishlarini olib borgan: Leychek V.M. M., 2003, Monerko L.A. M., 2000 yil (Ryazanʼ) Kiyak T.R. M., 2006, Grinev –Grinevich S.V., M., 2006 Novodranova V.F. 2007, Tuchina I.A. M., 2003 Xrustalova M.A., Filipova A.A. M. 2007, Chumakova Yu.P., Gorkiy 1965, Kushinova A.V., M., 2004.

Atamashunoslik lug'atshunoslikning ajralmas qismi sifatida ko'plab tilshunoslarning tadqiqot maqsadi bo'lib kelmoqda ( B.M Pererva, Xojiyev X, S.G Barhudarov, V.G Petushkov, B.N Sergayev va boshqalar)

Keyingi yillarda mustaqillikka erishgandan so'ng bu sohaga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Respublikamizga ilmiy texnik informatsiyaning muddatli oqimi kirib kela boshladi. Iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarning kuchayishi; yanhgidan yangi qo'shma korxonalarining barpo bo'lishi, ishlab chiqarishda xorijning yuksk texnologiyalarini tadbiq qilishga bo'lgan intilishi atamalar tizimini sistemalashtirish va ma'lum sohalarga oid ikki yil yoki undan ortiq tilli lug'atlar tuzishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirdi. Bu borada ko'plab izlanishlar olib borilgan, jumladan, V.P Danilenko, M.P Senkevich, Akobirov S, Hojiyev X 1976-yil Sobiq ittifoq ilmiy akademiyasining Sankt Peterburgdagi (oldingi Leningrad) ilmiy to'plamida ko'plab olimlarning atamashunoslikka bag'ishlangan ilmiy izlanishlari berilgan.

Darhaqiqat, kasb hunar atamalari birlamchi nominatsiya sifatida ma'lum soha mashinasozlik, tibbiyot, iqtisodning to'qimachilik muhandislikka oid tushunchalarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmalaridir. Atamalar tilda o'ziga xos leksik qatlamini tashkil qilib ma'no jihatidan neytral va emotsional, ekspressiv bo'yoqlardan holiligi bilan farq qiladi.

Turli tillardagi atamalar o'rtasidagi muqobillikni aniqlash, aniqrog'i atamalarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish hozirgi atamashunoslik sohasini dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet tilini o'qitish metodikasi: Chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakulg'tetlari) talabalari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 1996.
2. Муродкосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. (2020).
3. Немис ва узбек тилларида суз яшаш усуллари (композицион усул мисолида).

4. Муродқосимов, А., Рахманова, Д., Санакулов, З., & Зарипова, Г. НЕМИС  
ВА
5. ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СЎЗ ЯСАШ УСУЛЛАРИ (КОМПОЗИЦИОН  
УСУЛ МИСОЛИДА).
6. Akobirov S.F, Til va terminologiya, T., O\_zbekiston. 1968y. 22-23 betlar
7. Атоев А. К. Ёш - ўсмирларга ўзбек курашини ўргатиш (ўқув кўлланма).  
Т.: Ўз.ДЖТИ, 2005. -131 б.